

BIR MUSAMMAN TAHLILI

Ortiqova Aziza¹

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi

KEYWORDS

musamman tahlili, foilotun, ramali musammani mahzuf, ishq, muhabbat, ko'ngil, ilohiy ishq, majoziy ishq, g'azal, tasavvuf, badiiy san'at, mubolag'a, nido, tanosub, tashbeh, radif, ruhiy kechinmalar.

ABSTRACT

Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodining eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan "Ey ko'ngul" musammanini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada Navoiy asarining badiiy va falsafiy mazmuni, uning ishq va muhabbatga oid tushunchalari, shuningdek, she'rlaridagi san'at turlari (mubolag'a, tashbeh, tanosub, nido va boshqalar) ko'rsatib berilgan. Shoirning "ko'ngil" radifiga murojaat qilgan holda, ishq va muhabbatni nafaqat insoniy, balki ilohiy ishq sifatida tasvirlashdagi nozikliklari tahlil qilingan. Navoiy she'riyatining chuqur tasavvufiy jihatlari, shuningdek, uning g'azallari va musammannari orqali inson qalbining ichki kechinmalari va ruhiy holatlari ifodalanadi. Maqola, shuningdek, Navoiy asarlarida "ko'ngil" tasvirining ahamiyatini, uning inson va Yaratganga bo'lgan muhabbatdagi markaziy o'rnini chuqur o'rganadi. Shoirning badiiy va falsafiy uslubi, uning adabiy va diniy qarashlari haqida ham keng qamrovli tahlil berilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15728895**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. Sharqning buyuk mutafakkiri, turkiy tilga o'tkir qalami, otashin va unutilmas asarlari ila Iso Masih singari jon ato etgan, Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, "g'azal mulkining sultoni" Alisher Navoiy asrlar osha hamon qalbimizda, shuurimizda barhayot. Uning turkiy va forsiy tildagi serqirr ijodi hali-hanuz nafaqat ilm kishilari, balki oddiy kitobxonlarning ko'ngil mulkidagi eng nodir xazina kabi yashamoqda.

Navoiy qalamiga mansub turli janrlardagi ijod mahsullari qatorida dostonlar, kulliyot va devonlar; ular tarkibidagi g'azal(muxtara', tavr, javobiya, tatabbu'), tuyuq, ruboiy, qit'a, masnaviydan tortib muashshargacha bo'lgan "ipga tizilgan marjonlar"i qatorida beqiyos mazmun -mohiyatga ega musammanlari shoir iste'dodining yana bir sirli qirrasini namoyon etadi. Xususan, ilohiy ishq kuylangan musamman fikrimiz isboti bo'la oladi

Asosiy qism. Musamman 7 band 8 qatorli, jami 56 misradan iborat. "Ey ko'ngul" birikmasi

esa radif sifatida dastlabki bandda to'liq, qolgan baytlarning so'nggi qatorida takrorlanadi. Ramal bahrining ramali musammani mahzuf (afoyili va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilun, - V ----/ - V ----/ ~ V -----/ ~ V -) vaznida yaratilgan.

Musamman ish-muhabbat mavzusida bo'lib, asosan, oshiqning ma'shuqasiga ishq izhorlari, ko'ngil dardlari, dil fig'onlarini ifoda etadi. Bir qarashda insonning insonga muhabbati majoziy ishq kabi taassurot qoldirsa-da, bunda ilohiy ishq sirlari yuzaga chiqadi, Allohga bo'lgan beg'araz muhabbat bo'y ko'rsatadi. Ayrim misralarda oshiq bir paytning o'zida ham o'z ko'ngliga, ham ma'shuqaga, ham Yaratganga nisbatan murojaati, chaqirig'i ro'y beradi. Oshiq nihoyatda dardga to'lgan, firoqda joni azobda qolib, yuragi o'tda yonib qiynalmoqda. Ammo ohlari na yoriga, na ko'ngliga yetib boryapti. U yor visolidan umidvor, lekin visol nasib bo'ladimi, yo'qmi shubhada.

1-band:

Har taraf azm aylab ul sho'xi sitamgar, ey ko'ngul,
Tig'i hajridin necha bo'lg'ay bir afgor, ey ko'ngul.
Chun safar aylab edi bir qatla dildor ey ko'ngul,
Dardi hajrig'a bo'lub erduk giriftor, ey ko'ngul,
Bo'ylakim, ta'if etib g'urbatni bisyor, ey ko'ngul
Shahr-u kishvardin malohat aylab yor, ey ko'ngul,
Anglading yo yo'qmukim, izhor aylar safar, ey ko'ngul,
Vahki, bo'lduq yana hajri ilgidin zor, ey ko'ngul.¹

Umumiy radif– “ey, ko'ngil”, dastlabki birinchi band o'zaro sitamgor, afgor, dildor, giriftor, bisyor, izhor, yor, zor tarzida qofiyalangan. Asosiy radifdan seziladiki, e'tibor ko'ngilga qaratilyapti. Demak, ishq-muhabbat bilan bog'liq. Mumtoz adabiyotimizda ko'ngil asosiy tasvir manbayidir. Sababi tasavvufda Alloh odamning qalbi, ko'nglidagina o'z aksini topadi. Birinchi bandda ham oshiq kechinmalari murojaat ko'rinishida oishiq dard-u hasratlarini ifodalagan. Ko'ngil esa yaqin sirdosh va dardkashga aylangan. Ushbu bandda ma'shuqa oshiq qalbiga bir bor kirib ishq deb atalmish tuyg'uni joylagani, oshiq esa shu birrovga ko'ngliga kirgan mehmon ta'sirida g'am –u anduhga giriftor bo'lgani, g'urbat va sitamda qolib o'rtanayotganini ko'ngildan olib ko'ngilga to'kib solyapti. Oshiq shuncha nola qilsa-da, baribir visol emas, hajr qo'lida qolib ketayotganidan noliydi.

2-band:

Ahli ishq ichra manga dardi firoq o'lmish nasib,
Bu emas dardiki, ani daf eta olg'ay tabib,
Yorni g'urbat sari targ'ib etar har dam raqib,
Vahki, ul gul furqatidin o'lgusi bu andalib,
Chun safar asbobini omoda aylabtur habib
Bir taraf go'yo azimat qilgudektur anqarib,
Ul xud aylar azm, men ham xastadurmen, ham g'arib,
Gohi-gohi bo'lg'asen mendin xabardor ey ko'ngul .²

¹Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild – Toshkent: "Fan", 1987, 464- b

2-band nasib, tabib, raqib, andalib, habib, anqarib, g'arib so'zlari vositasida o'zaro qofiyalangan. Bu bandda oshiq o'zining ishq ichra dard deb aytib bo'lmaydigan "dard"ga muhtalo bo'lganini, kasallik asari sezilmaydigan ishq bemorligiga tabiblar davo topolmasligini, chunki bu odatiy bemorlik kabi emasligini ta'kidlaydi. Bunda raqib ham yorni g'urbat sari undayotgani, bu holat oshiqni yanada qiynoqqa solayotgani aytadi. O'zini gul ishqida ado bo'layotgan bulbulga qiyoslaydi. Ishq yo'lga kirgan kishi safarga otlamayotgan yo'lovchiga o'xshatiladi. Bu yo'l bir umrga tatiydigan xastalik va g'ariblik, ya'ni ishq yo'lida fidokorlik ekanini ko'ngliga so'zlaydi hamda bu safarida undan xabardor bo'lishi kerakligini uqtiradi.

3-band

Ey ko'ngul, sen sevdung ul oyniyu bo'ldi ulfatim
Kim, tamoshosig'a kundin-kunga oshti hayratim,
Ul borur emdiyu o'rtar jonni dog'i hasratim,
Shu'la gardung'a chekar har lahza so'zi furqatim,
Gar desam hamrah boray, za'f ichra ko'ptur shiddatim,
Yo'q turarg'a toqatu muhliktur onsiz mehnatim,
Ne borurg'a quvvatim bor, ne turarg'a toqatim,
Bizni bu holatqa sen qilding giriftor, ey ko'ngul.³

Shoir ushbu bandda ko'ngilga yuzlanadi: ey ko'ngil, sen o'sha oy(oysifat ma'shuqa)ni sevib qolding-u, mening hamrohim bo'lib qoldi. Baytda ko'ngilga murojaat qilish nido san'atini, yorni oyga qiyoslash esa istiora san'atini yuzaga keltiradi. Kundan kunga uning tomoshasiga hayratim oshib boraverdi. U boravergani sari hasrat jonni o'rtayveradi. Agar hamroh bo'lib boray desam, za'f(kasallik)ning shiddati ham shuncha ko'p to'siq bo'laveradi. Oshiqning ahvoli shu qadarki, na borurga quvvati bor va na bormay turishga toqati, ushbu qarama-qarshilik tazod san'atini yuzaga keltirgan. So'nggi misrada shoir meni demaydi, kamtarlik ma'nosida biz so'zini qo'llaydi: bizni bu holatga giriftor qilgan ham sensan deya ko'ngilga yozg'iradi. Yana oxirgi baytda ham ko'ngilga murojaat nido san'atini yuzaga keltirgan.

4-band

Yor chun aylab safar, paymonu ahdin snndurur,
Ming alam yuz zaxmliq jonimg'a har dam yetkurur,
Gar desam hamrah boray, tab'ida shiddat bilgurur,
Bormasam, hajri balo o'qi tanimg'a yog'durur,
Har birida bir suubatdurki, jonni kuydurur,
Bormog'im yo'q mumkinu tursam, firoqi o'lturur,
Bora xud olmon, turub ham, chun tirilgum yo'qturur,
Bas vido'ing qildim, andin qolma zinhor, ey ko'ngul.⁴

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild – Toshkent: "Fan", 1987, 464- b

⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild – Toshkent: "Fan", 1987, 464- b

Yor har yonga safar aylab, men bilan qilgan ahd-u paymonlarini sindirdi, ya'ni buzd. Ushbu baytda mubolag'a san'atini ko'rishimiz mumkin. Agar unga hamroh bo'lib boray desam norozilik bildiradi. Gar bormasam, hajr balosi jonimga o'qlar yog'diradi. Bu har ikki fikr o'zaro zid, bu esa tazod san'ati hisoblanadi. Har ikki holatda ham jonga azob yetadi. Bormog'imga ruxsat yo'g'-u, bormay tursam firog'i meni o'ldiradi. So'nngi misra yana ko'ngilga murojaat bilan yakunlanadi.

5- band

Har qayon borsa, rafiqu hamqadamkim bo'lg'asen,
Shodmoni aysh yo ranjuri g'amkim bo'lg'asen,
Noumid o'lma, giriftori alamkim bo'lg'asen,
O'zni gum qilma, azizu muhtaramkim bo'lg'asen,
Bil g'animat, itlaridin necha kamkim bo'lg'asen
Sen bo'lurg'a mahrami rozi haramkim bo'lg'asen,
Mahrame gar bo'lmasang, xushtur bu hamkim, bo'lg'asen
Itlarig'a rozdoru sohib, asror, ey ko'ngul.⁵

Bu bandda shoir har qadamda yaxshi kunda ham, yomon kunda ham rafiqqa ya'ni do'stga yelkadosh, yo'ldosh bo'lishni aytadi. Uchinchi baytda shoir, noumid o'lma deya, sharaflari dinimiz bo'lmish Islomga murojaat qiladi. Chunki, Islomda shunday gap bor: Noumid shayton. Bundan ko'rinib turibdiki, inson hechqachon umid qilishdan to'xtamasligi kerak. O'zingni hech qachon gum qilma, ya'ni yerga urma bir zumda hurmatli odamga aylanishing mumkin, yoki bo'lmasa obro'ying zo'r bo'lsa-ham bir zumda itday qadrli bo'lib qolishing ham mumkin. Bu hammasi umid bilan, bu hammasi Parvardigorning senga bitta nazari bilan bo'ladi. Bu bandda shoir tazod, nido, tanosub san'atlaridan foydalanish orqali, hayotimizda uchrab turishi mumkin bo'lgan xursandchilik, xafachilik sabrli bo'lish, yaxshi kunga intilib, har narsaga umid ko'zi ila boqib, Ollohga faqatgina unga ishonish hayotni yoritishi, zulmat nurlarini ketkazishi haqida fikr yuritadi. o'

6- band

Ul musofir xaylini itdek erishsang xoru zor,
Ranjdin joning nahifu toshdin jisming figor,
Qaysi mavzu' niki manzil aylasa ul shahsuvor,
Kecha tong otquncha qilsang posbonliq ixtiyor,
Solsang o'zni ichkari, gar g'oyib o'lsa pardador,
Qovsa, chiqsang — qovmasa, dargah aro tutsang qaror,
Nogahoni gar bo'lub toli' musoid baxtiyor,
Topsang ul oy birla so'zlashguncha miqdor, ey ko'ngul.⁶

Mumtoz adabiyotga e'tibor qaratar ekanmiz, bu dunyoda barcha tirik jon toki u nafas olar ekan musofir hisoblanadi. Chunki, bu hayot, bu zamin ular uchun muqim o'rnashadigan joy emas, balki vaqtinchalik umrguzaronlik qiladigan joydir. Bunda ijodkor musofirning

⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild – Toshkent: "Fan", 1987, 464- b

⁶ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild – Toshkent: "Fan", 1987, 464- b

holatini itga o'xshatyapti. Ranj bu mashaqqat va bu mashaqqatdan joning azob cheksa, uning masuliyatida jisming azob chekadi. Sevimli kishing agarda qaysidir mavzu haqida subatlashishni xohlasa, send uni xohlash yoki xohlamaslik nuqtayi nazaridan unga sherik bolishga majbursan. Insonlarning aslida eng katta xatosi ham shu, boshqalarni Xursand qilish uchun o'z erkinligidan kerak bôlsa o'z xohishidan ham voz kechadi. Bu bandda qiyinchiliklarni hayotdagi muammolarni ifodalash uchunam, tanosub sanat'idan foydalangan.

7-band

Hajr-u furqat anduhidin telbalardek chekma un
Mastlardek so'z adosin qilma, ko'p aytib uzun
Avlo ulkim, oh o'tidin qilmasang zohir tutun
Etmasang sargashtalik dasht uzra andoqkim quyun
Borgohi ayshida bir go'shada tutsang o'run
Jannat oyin bazmig'a el mast bo'lmasdin burun
Qilg'asen miskin Navoiy dardin izhor, ey ko'ngul.⁷

Ushbu bandda ayriliq, yor, ya'ni haq visoliga yetishish yo'lidagi oshiqning zahmati qalamga olingan. Muallifning obraz yaratish mahorati shundaki, baytda ko'ngil, borgoh singari ramziy obrazlar bilan birga dasht, quyun, tutun kabi badiiy obrazlar musammaning badiiy-g'oyaviy qimmatini oshirgan. Un-uzun-tutun-quyun-o'run-burun so'zlari qofiyadosh so'zlar bo'lib, ey ko'ngil radif o'rnida kelgan.

Xulosa. Oshiqning hijrondagi holatini yanada kuchaytirib, bo'rttirib tasvirlash maqsadida hajr-u furqat, anduh singari bir-biriga mutanosib so'zlarni qo'llab tanosub hamda ta'did sanatlarini qo'llagan. Oshiq o'zini ishqda beqarorlikda, sargardonlikda mast-alast kimsalarga, telbalarga qiyoslayapti. Oshiq ham ayriliqqa chidolmay faryod qilib telbaday nima qilishini va mastlardek nimalar deyishini bilmaydi. Bunday go'zal o'xshatish orqali tashbeh san'atini yuzaga keltirgan. Shuningdek, ishq bobida bechora Navoiy dardini baralla izhor etishini so'rab ko'ngilga murojaat qilish maqsadida nido san'atini qo'llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild – Toshkent: "Fan", 1987
2. . Abdug'afurov A. Alisher Navoiy musammatlari. // O'zbek tili va adabiyoti.-1978.-N I.-B. 27-33
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2- jild. -Toshkent: FAN, 1992.
4. . Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 784 b.

⁷ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 6-jild – Toshkent: "Fan", 1987, 464- b

5. Navoiy A. Qomusiy lug'at. 1-jild. –Toshkent : Sharq, 2016.-536 b.
6. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. –Toshkent: «Yozuvchi», 1996. - 272 b.
7. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda «O'zbekiston» nashriyotlari, 1999. - 204 b.